

## **ALISHER NAVOIY IJODIDA TARIXIY OBRAZGA O'ZGACHA YONDASHUV**

**Alisher Razzoqov**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-pochta: [razzoqovalisher45@gmail.com](mailto:razzoqovalisher45@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada tasavvuf tarixida ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan mashhur so'fiy Mansur Halloj obrazining Navoiy asarlaridagi talqini haqida so'z yuritiladi. Maqolada Mansur Halloj va Navoiyning unga bo'lgan munosabati, tarixi va taqdiriga ob'ektiv ilmiy yondashuvni o'rganish maqsad qilingan. Muhokama qilingan mavzuni o'rganish uchun tasavvuf tarixi va nazariyasiga oid klassik manbalar va sharhlar, Navoiy nasriy asarlaridagi Halloj xarakterining talqini uslubiy asos qilib olingan. Maqolaning asosiy manbasi sifatida Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi Halloj hikoyati tanlandi. Bu hikoyatni Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridagi Halloj qissasi bilan solishtirib, Attor va Navoiyning tasavvufiy qarashlari o'rtasidagi tafovutlar o'rganildi Navoiy Halloj obrazi vositasida naqshbandiya tariqatiga xos mo'tadil tasavvufiy qarashlarni talqin qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, Farididdin Attor, Mansur Halloj, tasavvuf, badiiy adabiyot, badiiy obraz, timsol.*

### **ABSTRACT**

*In this article, the interpretation of the famous Sufi Mansur al-Hallaj, a figure that has sparked numerous debates in the history of Sufism, in Navoi's works is discussed. The article aims to explore the relationship between Mansur al-Hallaj and Navoi, as well as the historical and fateful aspects of their connection, through an objective scholarly approach. Classical sources and commentaries on the history and theory of Sufism, along with the interpretation of Hallaj's character in Navoi's prose works, serve as the stylistic basis for the study. The main source of the article is the story of Hallaj in Navoi's epic "Lison ut-Tayr" (The Language of the Birds). This story is compared with the tale of Hallaj in Attar's "Mantiq ut-Tayr" (The Conference of the Birds), and the differences in the Sufi perspectives of Attar and Navoi are examined. Through the character of Hallaj, Navoi interprets the moderate Sufi views characteristic of the Naqshbandi order.*

**Keywords:** *Alisher Navoi, Fariduddin Attar, Mansur al-Hallaj, Sufism, artistic literature, artistic image, symbolism.*

## **KIRISH**

Alisher Navoiy tasavvuf nazariyasi va amaliyotiga doir biror risola yozmagan bo'lsa ham, ammo uning barcha asarlari bu ta'limotning umumbashariy, axloqiy-ta'limiy va falsafiy asoslaridan ilhomlanib yozilgani shubhasizdir. Shuning uchun ham Navoiy asarlarini tahlil va talqin qilishda tasavvuf tarixi, falsafasini chetlab o'tish imkonsiz. Shoir asarlarida, lirik devonlarida bir qator tasavvufiy obrazlar, ramzlar turkumini yaratdi. Bular orasida tasavvuf tarixidagi shaxslar asosida ishlangan obrazlar ko'plab uchraydi. Shulardan biri Husayn Mansur Halloj obrazidir.

Tasavvuf tarixida "Mansur Halloj" nomi bilan tanilgan Abul Mug'is Al-Husayn bin Mansur al-Bayzoviy (858 – 922) o'zining bahsu munozalarga sabab bo'lgan hayoti va ijodi, tasavvufiy qarashlari bilan nafaqat tarixda muhim o'rin tutishi bilan birga, o'zidan keyingi tasavvuf adabiyoti mavzu-mundarijasining boyishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Aynulquzzot Hamadoniy, Ahmad al-G'azzoliy, Ro'zbixon Baqliy, Sanoiy, Attor, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy singari so'fiy ijodkorlar Mansur Hallojdan katta ilhom oldilar. Shunday bo'lsa-da, Alisher Navoiy tasavvuf adabiyotining bir namoyondasi o'laroq o'z asarlarida Halloj shaxsiyatiga ko'p ham murojaat qilmagan. Tasavvufiy tazkirasi "Nasoyim ul-muhabbat" va "Mahbub ul-qulub" hamda "Lison ut-tayr" dostonidagi ma'lumotlarni istisno qilmaganda lirik asarlar majmuasi "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida esa Halloj nomini bir o'rindagina tilga olgan, xolos:

Gar yaqin ahlini Mansur kebi qatl etmas,

Bas nedindur shajaru sunbuli doru rasani? [18: 678]

Mazkur baytda Navoiyning Hallojga munosabati aniq ifodalanmaydi. Shoir uning ismini va fojeali qatl etilishini shunchaki badiiy tasvir vositasi – talmeh san'atini yuzaga chiqarish uchungina qo'llagan.

Navoiyning Hallojga munosabatini o'rgangan ayrim olimlarning fikriga ko'ra, "Alisher Navoiy asarlarini sinchiklab ko'zdan kechirilsa, ulug' shoir hech bir o'rinda Mansur Halloj sha'niga ortiqcha maqtov so'zlari aytmaganligi va uning maslagini ochiq-oydin qo'llamaganligi ravshanlashadi. Kuchli va favqulodda bir ma'naviy-ruhiy, fikriy-ijodiy hodisa o'laroq ko'zga tashlanib turuvchi ta'sirning yo'qligi aniq, albatta. Buni Navoiyning "Anal-haq" g'oyasini ochiq-oydin qo'llab-quvvatlamaganligi yoki uning talqini va targ'ibotiga alohida ahamiyat bermaganligidan ham bilish mumkin" [30: 60 – 61]. Chunki Alisher Navoiy har qancha shoir bo'lsa ham, tasavvufiy masalalarga birinchi navbatda bir musulmon nazari bilan qaragan. Adabiyotshunosligimizda ham Navoiyning badiiy ijodda kamolot darajasiga ko'tarilishida sabab bo'lgan ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik omillar qatorida Qur'on va Sunnatni mukammal o'rganib, butun hayoti davomida

islom shariatining bu ikki mo‘tabar manbasiga og‘ishmay amal qilgani alohida ta’kidlangan [22: 17].

### **Tasavvuf falsafasi va adabiyotida Hallojga munosabat**

Agar biz Alisher Navoiy tanish bo‘lgan, murojaat qilgan tasavvufiy asarlarga qaraydigan bo‘lsak, uning nega Hallojga betaraf bo‘lgani yoki tasavvufiy qarashlarini qo‘llab-quvvatlamaganining sababi bir qadar oydinlashadi. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida Halloj haqida Shayxulislom (Abdulloh Ansoriy)ning quyidagi so‘zlari keltiriladi: “Mashoyixga, shariatga va ilmga ergashganim uchun ham uni qabul qilmadim, ammo rad ham etmadim, siz ham shunday qiling, uni o‘z holida qoldiring, betaraf bo‘ling” [2: 169]. Darhaqiqat, tarixda islom ulamolari Halloj haqida to‘rt guruhga ajralganini ko‘rish mumkin: bir qismlari uni haqli deb bilib, himoya qilganlar, qarashlari bilan o‘rtoqlashganlar; bir qismlari uni kofir va zindiq deb hisoblab, keskin rad etganlar; boshqa bir qismlari uning holini uzrli sanab, unga achinganlar; to‘rtinchi guruh esa u haqida biror hukm chiqarishdan qochib, sukut saqlashni afzal bilganlar [12: 380]. Jumladan, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o‘zining “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Mansur Hallojni payg‘ambarlik da’vo qilgan shaxslar qatorida zikr qilgan [17: 247]. Uning tasavvufiy yo‘li, qarashlariga nisbatan tanqidiy munosabatlar zamonaviy tadqiqotlarda ham davom etmoqda [28: 219 – 225]. Tasavvufga doir ilk tazkira Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqotus-sufiya” asarida xabar berilishicha, ko‘pchilik shayxlar uni rad qilishlari bilan birga Abul Abbas bin Ato, Abu Abdulloh Muhammad bin Hafif va Abul Qosim Ibrohim bin Muhammad an-Nasrobodiyalar Hallojni qabul qilib, maqtaganlar, holini durust deb topganlar, so‘zlarini naql qilganlar va uni muhaqqiqlardan deb hisoblaganlar [3: 236]. Anglashiladiki, bu mavzuda Navoiy ham qaysidir ma’noda betaraf qolishni afzal bilgan, ammo butunlay emas. Agar shunday bo‘lmaganida “Lison ut-tayr” dostonining quyidagi baytida uning tavhiddagi holi durust ekanini ta’kilamasdi:

Bo‘ldi chun Mansur tavhidi durust,

Kim “Anal-haq!” erdi alfozida chust [20: 223].

XI asrda yashagan tasavvuf olimi Abdulkarim Qushayriy “Risolai Qushayriya” asarida Mansur Halloj nomini asarining so‘fiylar manonqiblari qismida zikr qilmagan bo‘lsa-da, ammo uning ko‘plab hikmatli so‘zlarini keltirgan. Jumladan, asarning bir o‘rnida Mansur Hallojning “Kim hurriyatni istasa ubudiyatda (Allohga qullik qilish, uning buyruqlariga itoatda bo‘lishda) jiddiy davom etsin” [1: 342]. Haqiqatdan ham, deyarli barcha tasavvufiy manbalarda Halloj islom shariatiga to‘la amal qilgan komil bir musulmon sifatida tilga olingan. Halloj himoyachilaridan biri Hujviriy unga taqalغان g‘ayrishir’iy ishlarni, jumladan, sehrgarlikning ham tuhmat ekanini

isbotlashga urunadi: “Ahli sunnat va jamoatdan bo‘lgan basirat ahli ijmo va ittifoq qilganlarki, musulmon sehrigar, kofir esa karomat sohibi bo‘lolmaydi, chunki zid narsalar bir joyda jam bo‘lmaydi. Husayn (Mansur Halloj –A.R.) roziyallohu anhu yashagan hayotida taqvo va saloh libosi ichida bo‘ldi. Namozini go‘zal ado qilardi. Asosiy vaqtini zikr va munojot bilan o‘tkazardi. Uzluksiz ro‘za tutardi, muntazam ravishda hamdu sanoda bo‘lard, tavhid mavzusida latif va go‘zal so‘zlar aytgandi. Agar uning fe‘l va harakatlari sehr bo‘lganda edi bu kabi ishlarning undan zuhur bo‘lishi imkonsiz va botil bo‘lard. U holda undan sodir bo‘lgan narsalarning karomat ekani shubhasizdir. Zero muhaqqiq valiylerden boshqasida karomat bo‘lmas” [6: 159]. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarining muqaddimasida Hallojning kunlik besh vaqt farz namozlaridan tashqari yana bir kecha-kunduzda ming rakat nafl namoz o‘qishini, qatl etiladigan kechasida esa besh yuz rakat namoz o‘qiganini yozadi [21: 94]. Halloj umrining so‘nggiga qadar sodiq bir musulmon bo‘lib qolishni istar ekan, hatto mazhabda ham eng muhofazakor hanbaliy mazhabida edi [16: 87]. Bunga ilova tarzida olmon tasavvufshunosi A.Shimmel shunday qayd etadi: “Hallojning iymonli bir musulmon bo‘lgani haqida biror shubhasi bor kishiga “Kitobul-tavosin”dagi Muhammad (s.a.v) tasvirini o‘qimog‘i kifoyadir” [7: 70].

Navoiyning Hallojga ko‘p bo‘lmasa-da nisbatan xayrixohligini Hujjatul-islom Imom G‘azzoliyning “Anal-haq” so‘ziga doir talqinidan ham anglasa bo‘ladi. G‘azzoliy bu so‘zning aytilgan maqomi va holining ahamiyatiga ishora qilib, bu mavzuni tajalli va fano tushunchalari bilan tushuntiradi hamda quyidagi misolni keltiradi: bir jomga ichimlik quyilarkan, jom va ichimlikning rangi bir-biriga qorishadi, shunda jom haqida emas, faqat ichimlikning borlig‘i haqida so‘z yuritiladi. Qalbida Alloh tajallisini ko‘rgan bir valiy ba‘zan tajalli yeri bo‘lgan qalbni ko‘rmas, faqatgina unda tajalli etgan Haqni ko‘rar va shunda “Anal-Haq” der. Bundan maqsad valiyning o‘z borlig‘in yo‘q sanab, Haqning borlig‘ini tilga olmoqdir [12: 379].

Bunga qo‘shimcha tarzda turk tasavvufshunosi Hasan Komil Yilmaz tomonidan “Anal-Haq” so‘zi sharhlangan quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir: “Vahdat ul-vujud qalbning ma’naviy sayri asnosida maydonga keladi. Manbasi ibodatning ko‘pligidir. Mujohada, dunyoga rag‘batni tark etish, zikrda bardavom bo‘lish kabi sabablar bilan qalbda sevgi va ishq maydonga keladi. Shu tariqa qalb mosivodan poklanib, Haqning ism, sifat nurlariga ko‘zgu bo‘ladi. Shu asnoda shiddatli sevgi va ishq tufayli solik aks va soylarni Haqning o‘zi deb tushunib, “Anal-Haq” deyishni boshlaydi. Hadisi qudsiyda “Qulim menga nafl ibodatlari bilan yaqinlashadi. Toki Men uni sevaman. Uni sevar ekanman ko‘rish, eshitish, yurish va tutmog‘i Men bo‘laman. Bandam Men bilan ko‘radi, Men bilan eshitadi, Men bilan yuradi, Men bilan tutadi” deya marhamat qilingani kabi, banda o‘z fe’llarini Haqning fe’llari

ekanini idrok eta boshlaydi. Aslida har kimning fe'li Haqning fe'li bo'lsada, buni idrok etmaydi. Fano, jam va vahdat holi pardani ko'tarib, bu haqiqatni ko'rishni ta'minlaydi... Mansur Halloj ham o'zini Haq bilan qoim, borlig'ini esa yo'q deb hisoblar ekan, "Anal-Haq" degan edi. Ammo bu o'rinda bir noziklik bor: "Alloh" lafzi Uning zotiga, "Haq" kalimasi esa Uning tajallilariga mansub bir ismdir. Bu jihatdan "Anal-Haq" so'zi bilan "Analloh" o'rtasida farq bordir" [15: 288 – 289].

Navoiyning Hallojga bo'lgan nisbatan ijobiy munosabatining boshqa sabablari ham bor, albatta. Chunki ko'pgina manbalar Mansur Hallojning aynan o'sha "Anal-haq" so'zi uchun qatl etilmaganiga ishora qiladi. Masalan, Hujviriyning "Kashful-mahjub" asarida undan nega yuz o'girishganligi shunday ochiqlanadi: "Shayxlarning uni (Hallojni – A.R.) tark etishlari, uning dini va mazhabiga ta'na qilish, uni bu jihatdan rad etish uchun emasdi. Buning tamoman aksicha bu holat uning dunyoviy holi va o'zini tutishi bilan bog'liq edi. Halloj ilk boshda Sahl bin Abdullohning muridi edi. Izn olmasdan undan ayrildi va Amr bin Usmonga bog'landi. So'ngra iznsiz uni ham tark etdi, Junaydga bog'landi, ammo Junayd buning uchun uni qabul qilmadi, bu sababdan barchalarni uni tark etdilar. U muomala va o'zini tutishi tufayli tark etildi, asl va asos e'tiboridan tark etilmagandi. (Agar shunday bo'lmaganda) ko'rmaysanmi, Shibliy uning haqida "Men va Halloj – ikkimiz bir edik, meni telbaligim qutqardi. Uni esa aqli boshiga yetdi" deydi. Agar Hallojning dini va diyonati ta'na qilingan bo'lsaydi, Shibliy "Men va Halloj – ikkimiz birmiz..." demasdi. Muhammad bin Hafif "Halloj rabboniy bir olimdir" degan [3: 236; 6: 158].

Naqshbandiya tariqati allomalaridan Xoja Muhammad Porso ham "Faslul-xitob" asarida bir qator tarixiy manbalarga, faktlarga tayanib, uning haqidagi uydirmalar asossiz ekani, uni qatl qilishga ulamolar ham, so'fiylar ham fatvo bermaganligini isbotlagan: "Mutaqaddimin va mutaxxirin (avvalgi va keyingi) mashoyixlar Husayn bin Mansurni shahid bo'lganligiga ittifoq qilganlar. Mutaaxxirinning ittifoqi eski ixtilofni o'rtadan ko'taradi. Ixtilof sahih bir ijthod yuzasidan voqe' bo'lganda muxoliflarning fikri inobatga olinardi. Ammo bunday narsa yo'q. Uning haqida asli ma'lum bo'lmagan juda ko'p bo'htonlar to'qilgan. Basirat sohibi bo'lgan ilm ahllari ularga ahamiyat bermaydilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nomidan to'qilgan ko'plab hadislarga muhaddislar qanday e'tibor bermagan bo'lsalar, Halloj haqidagi uydirmalarning ham haqiqat nuqtai nazaridan biror qiymati yo'qdir. Masalan, sayyid ut-toifa Junayd Bag'dodiy quddusi sirruhuning Hallojning qatl etilishiga fatvo berishi haqidagi rivoyat ishonarli tarix bilan ilm sohiblarining nazarida dalili bo'lmagan ochiq bo'hton ekanligi sobitdir. Chunki Husayn bin Mansur zulqa'daning 6-sanasida, hijriy 309da chorshanba kuni Bag'dodda Toq darvozasida shahid bo'lgan. Junayd Bag'dodiy esa 297-hijriy sanada shanba kuni vafot etgan.

“Tabaqotul mashoyix” kitobida ham ayni shunday qayd etilgan. Ulug‘ olimlar u fatvoni Junaydga nisbat berilishini katta bir bo‘htondan boshqa narsa emasligi aytganlar. Ayni shaklda olim bir imom, faqih Muhammad bin Dovud bin Ali al-Ahbariy az-Zahiriyning Halloj qatliga fatvo bergani haqidagi rivoyat ham ochiq bir bo‘htondir. Chunki bu rivoyatning asli yo‘qdir. Tahqiq ahli Muhammad bin Dovud az-Zahiriyning Husayn bin Mansurning boshiga bu ish kelmasidan o‘n ikki yil birun vafot etganligini aniqlaganlar” [14: 59].

Hujviriyy esa yuqorida tilga olingan asarida Halloj nomiga to‘qilgan bo‘xtonlarning sabablarni yanada oydinlashtirib shunday yozadi: “Bag‘dod va uning atrofida mulhidlardan bir jamoat ko‘rdim, Hallojga bog‘liqlik da’vosida edilar, uning so‘zlarini o‘zlarining zindqliklariga dalil qilardilar va o‘zlariga “Hallojijiy” ismini berardilar” [6: 160]. Juda ko‘p yolg‘on va tushunarsiz so‘zlarni, noma‘lum kitoblarning Hallojga nisbat berilishini Xoja Abdulloh Ansoriy ham o‘zining “Tabaqot us-sufiya” asarida ta’kidlagan [13: 323 – 324].

Qolaversa, turk tasavvufshunos olimi Sulaymon Uludag‘ning yozishicha, Halloj yashagan davrda va undan oldin ham tasavvufiy qarashlari uchun biror kishining qatliga hukm etilmagani, “Anal-haq” so‘zining o‘sha davrda ham o‘lim jazosiga sabab bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari Hallojdan keyin ham tasavvuf adabiyotida bu ibora qabul qilinib, tez-tez qo‘llandi, tasavvuf shoirlari teran bir jo‘shqinlik ichida bu so‘zni takrorlashdan buyuk bir ruhiy lazzat tuydilar, eng muhofazakor doiralar ham bu iborani qo‘llagan mutasavviflarni kofirga chiqarmadilar [12: 379].

Alisher Navoiy ham “Lison ut-tayr” dostonida so‘fiylikdagi bunday holatda so‘zni o‘z ma‘nosida emas, boshqa ma‘noda tushunish kerakligini, ma‘nodan uzoq kimsalar so‘zning o‘zi bilan ovora bo‘lishlarini shunday ta’kidlaydi:

Onglakim so‘z o‘zga, ma‘ni o‘zgadur,

Ma‘ni ongmos shog‘il ulkim so‘zgadur [20: 258].

Ma‘lumki, tasavvuf adabiyotida Alisher Navoiydan oldin ko‘plab shoirlar qatori Farididdin Attor ham asarlarida Halloj obrazini tasvirlaydi. Attor asarlarida Halloj shaxsiyatiga butunlay xayrixoh va muxlis sifatida yondashadi. Attor Mansur Halloj g‘oyalarini jo‘shqin bir ehtiros bilan kuylab, chuqurlashtirgan edi. Uning uchun Mansur Halloj bir ideal, balki chinakam komil inson, tavhidning timsoli, insonning kamol topib, haq va haqiqatga aylangan real obrazidir [23: 325]. Bu holat “Mantiq ut-tayr”dagi Halloj haqidagi hikoyatda yanada aniq ko‘rinadi:

“Hallojni dor ostiga olib kelganlarida tiliga “Anal-haq”dan o‘zga so‘z kelmasdi. Uning tiliga tushunmadilar, qo‘l va oyoqlarini kesdilar. Uning qoni to‘kilgach, yuzlari, badani sarg‘aya boshladi. Zero, qon oqqandan keyin kishining yuzi qizil

bo‘ladimi?! Yo‘ldagi quyosh singari kesilgan qo‘llarining qonlarini yuziga surta boshladi va dedi: “Oqqan qonlarim bilan gul yuzimni yanada qizilroq qildim, toki birovning ko‘ziga sarg‘ayib ko‘rinmayin, har doim yuzim qip-qizil bo‘lib tursin. Sarg‘aygan yuzimni ko‘rgan kishi meni qo‘rqibdi, deb gumon qilmasin. Menda qilcha ham qo‘rquv yo‘q, bu yerda gulgun yuzdan boshqa narsa yo‘q” [10: 150].

### **Navoiy talqini**

Adabiyotshunos N.Shodmonovning ta‘kidlashicha, Alisher Navoiy o‘zidan oldingi so‘fiy ijodkorlarga nisbatan chuqur ehtirom ko‘rsatsa-da, lekin ularning hech biriga tobelik darajasida qolmaydi [Шодмонов 2018, 123]. Shunday ijodkorlardan biri Fariddin Attorni o‘ziga ma‘naviy ustoz deb bilgan, shunday bo‘lishiga qaramay uning qarashlarini aynan takrorlamaydi. U “Lison ut-tayr” dostonida Halloj obrazini yaratar ekan, garchi u bu asarini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari ta‘sirida, unga javob tarzida yozgan bo‘lsa ham, undagi aksariyat hikoyat va obrazlarni, asosan, Xoja Abdulloh Ansoriy nuqtai nazariga ko‘ra hamda o‘z davrining yetakchi tasavvuf tariqati hisoblangan naqshbandiya qarashlariga ko‘ra talqin qiladi. Uning talqiniga ko‘ra, Halloj tushgan holatni boshqa ko‘plab so‘fiylar boshlaridan o‘tkazganlar, ammo ular ham e‘tidol – mo‘tadillikni afzal bilganlar, ham adab saqlay olganlar va o‘quvchiga ham shunday yo‘l tutishni, bunday da‘voda bo‘lib, jonini xatarga qo‘ymaslikni maslahat beradi:

Ko‘p suluk ahlig‘a kashf o‘lub bu hol,

Ham adab asrabdurur, ham e‘tidol.

Sen dog‘i bu da‘vi izhor aylama,

Nafsnı mustavjibi dor aylama [20: 224].

Alisher Navoiy Abdulloh Ansoriyning bu mavzudagi nuqtai nazarini “Mahbub ul-qulub” asarining “Zikr sharhida” nomli bobida quyidagicha tushuntiradi: “Bu daryo (“la ilaha illalloh” zikriga g‘arq bo‘lib, o‘zni unutish – A. R.)g‘a kirgan gavhari maqsud tilasa dam asramoq kerak va bu haramg‘a yo‘l topqon mahramliq tilasa dam urmamoq kerak. Shoh rozin asramoqda tilin tiymag‘anning boshi boribdur va g‘ayrat va siyosat tig‘i aning nihodidin zamor chiqoribdur. Bu may ichgandin kayfiyat izhori ko‘ngli betoblig‘idindur va bu boda mastlig‘ining sharoblig‘idindur... Muqarrabi Hazrati boriy Xoja Abdulloh Ansoriy (quddisa sirruhu) dedikim, ul takallumg‘akim Mansur dam urdi, men ham urdum. Ul oshkor etti va men yoshurdum. Menkim yoshurdum, tojdorlig‘ manqarib bo‘ldi. Ul oshkor etti, dorg‘a toj bo‘lmoqlik nasib bo‘ldi. Ul hanuz xom erdi va bu ma‘nidin xurush qiluri behangom erdi. Eshitguvchi ibo etti va anga yetti va ulcha yetti. Men ul so‘zni anjumanda guhor etarmen va izhorida isror va takror etarmen hech kas manga nima dey olmas va demaskim,

so‘zumning agarchi ma‘nisi uldur, ammo suvrati ul emaskim, suvrat ahli suvratga nazar solurlar va ma‘ni ahli ma‘nidin bahra olurlar” [20: 493].

Ya‘ni, inson har qancha haqiqat mayidan mast bo‘lib, to‘lib-toshmasin, u baribir mo‘tadillikni saqlay bilishi, sirlarni oshkor qilmasligi kerak. Chunki, tasavvuf g‘oyalari omma uchun emas, xoslar uchundir. Tasavvufning zohidlik davri namoyondalaridan Imom Zaynul-Obidinga nisbat berilgan quyidagi so‘zlarning ma‘nosi ham Mansur Halloj holatini o‘zida mujassamlashtirgan: “Shunday ilm javharlari borki, uni izhor qiladigan bo‘lsam, meni butparast hisoblab, musulmonlar qonimni to‘kishni halol sanardilar. Bu qilgan ishlari o‘zlariga go‘zal ko‘rinardi” [5: 36]. Tasavvufning so‘z yuritilayotgan bu mavzusida Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida shunday ta‘lim beradi: “Agar tariqatning rukni – ustuni nima deb so‘rasalar, xos so‘zni xos joyda xos kishilarga aytish deb ayt” [31: 16].

Navoiydan avval yashab, ijod qilgan Sayid Qosimiyning ushbu baytlari esa yuqoridagi qarashlarni to‘la quvvatlaydi:

Agar sen mardi rahsen saqlagil dam,  
Chu Mansur urmag‘il olamni barham.  
Dam urma to tilingni kesmasunlar,  
Boshingni dor uzra osmasunlar [26: 153, 157].

Alisher Navoiy o‘z g‘azallarida bu g‘oyani yanada mukammallashtiradi, uning quyidagi baytida Mansur Hallojning nomi tilga olinmasa-da, ammo uning holatiga ishora borligi shubhasizdir:

Haq sirrini har kimga bayon etma, Navoiy,  
Ta‘n aylamagay, bilmas ulus anglasa nogah [19: 531].

So‘fiylarning fikriga ko‘ra, ishqni o‘zgalarga so‘zlash oshiqning hali kamolotga yetmaganidan dalolatdir. Ishqning sirini ochiqlash, yana ham sokin mutasavviflarning nazarida hali maqsadga yetolmagan birisi kabi ko‘rinishga sabab bo‘lgan. Ularga ko‘ra Halloj, qaynamasdan avval ovoz chiqaradigan suv to‘la qumg‘onga o‘xshaydi, suv qaynab, bug‘lana boshlagan vaqtdagina qumg‘onning ham ovozi tinadi, demishlar [7: 73].

Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Hallojga bo‘lgan munosabatini yanada yaqqolroq aks ettirgan. Bu asardagi hikoyatning qisqacha mazmuni shunday: Halloj payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning me‘rojlar va undagi hodisalar haqida tafakkurga berilarkan, nabiy alayhissalom shunday buyuk maqomda Haq taolodan nega faqat ummat osiylarininggina gunohlaridan o‘tishni so‘radi, faqat shu bilangina kifoyalandi, birato‘la azalu abadgacha bo‘lgan adashganlarning ham gunohini bag‘ishlashni tilasa bo‘lmasmidi, deb o‘ylaydi. Ammo payg‘ambar alayhissalaom



unga ayon bo‘lib, buning sababini o‘zlari izohlaydilar. Avvalo u zot sallollohu alayhi vasallam Hallojga “fuzul” – ko‘p gapiruvi, ezma va “Anal-haq” deb lof uruvchi deb ta’na qiladilar:

K-ey fuzul ayvonida o‘lturg‘uchi,

Lofi vahdatdin “Anal-haq!” urg‘uchi [20: 225].

Payg‘ambar alayhissalom me’rojda “qoba qavsayn” maqomida ekanlar, menliklarini tamoman unutganlari, o‘rtada nelar bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, barchasi Haq taoloning xohish-irodasi bilan amalga oshgani, me’rojga ko‘targan ham, ummat gunohini istagan ham, bag‘ishlagan ham aslida Uning O‘zi ekanligini bas, shunday ekan, bu holatda “men” demoqlikka so‘z ham bo‘lishi mumkin emasligini anglatadilar:

Bilmadingkim, ul sifat oliy buruj,

Kim men aylab erdim ul oqshom uruj.

Onda menlikning xayoli yo‘q edi,

Balki bu lafz ehtimoli yo‘q edi.

Eltgan ul erdi, boshlag‘on ham ul,

Istag‘on ham ul, bag‘ishlag‘on ham ul [20: 225].

Asarda payg‘ambar alayhissalom lafzlaridan so‘zlangan izohda aytilishicha, Halloj “anahaq” derkan, bu so‘zning o‘zida ham “menlik” da’vosi borligiga ishora qiladilar, holbuki, tavhidda “menligu senlik” bo‘lmaydi, Haq taolo ikkilikdan pok zot:

Sen ajab ko‘tahnazarliq aylading,

Bo‘yla yerda bebasarliq aylading.

Kim oningdek vodiya Tavhid aro,

Gulshani tajrid ila tafrid aro.

Haml qilding menliku senlikka yo‘l,

Bu ikkilik vasfidin pok erdi ul [20: 225].

Mazkur hikoyat Shamsiddin Ahmad Aflokiyning “Manoqib ul-orifin” va Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarlarida ham bayon qilingan. Alisher Navoiy esa uning hamma tafsilotlarini o‘z asariga kiritmagan. “Nafahot ul-uns”ning turkiy tildagi erkin tarjimasi bo‘lgan “Nasoyim ul-muhabbat”da ham Halloj manoqibiga doir bu voqeani tushirib qoldirgan. “Manoqib ul-orifin”da bu voqeani Jaloliddin Rumi o‘zining va’z majlislaridan birida shunday shaklda so‘zlab, Hallojning qatl etilishiga o‘z munosabatini bildiradi: “Uning (Hallojning – A.R.) osilishiga sabab shu edi: Mansur bir kuni shunday dedi: agar Muhammadni uchratsam, uning yoqasidan olardim. Me’roj kechasida Tangrining huzuriga chiqqanida faqat o‘z ummatini o‘yladi, nega barcha insonlar uchun rahmat so‘ramadi, nega hammani menga bag‘ishla demadi, faqatgina mo‘minlarni bag‘ishla, dedi”. Shu payt hazrati Mustaf o alayhissalom bir

shakl va suratda namoyon bo‘lib kirib keldilar, “Mana, keldim, ko‘raylikchi, qanday qilib yoqamdan olarkansan” dedilar va: “Biz nima istasak Haqning amri ila istaymiz. Qalbimiz Uning amrining uyidir. Bu uy Tangrining irodasi va farmonidan boshqa har narsadan pokdir. Agar hamma uchun rahmat istaganida, hamma uchun istardim, ammo hamma uchun emas, mo‘minlar uchungina istadi”, deya ilova qildi. Mansur: “(Bu adabsizligim uchun) aybimni yuvishga tayyorman”, deb boshidan sallasini olib yerga qo‘ydi. (Payg‘abar alayhissalom) dedilar: “Sallangga rozimasman, aybingni boshing bilan yuvasan”. Shu voqedan ikki kun o‘tib Mansur dorga osildi, bunga sabab shu edi. Mansur dor osti turib shunday dedi: “Buning qayerdan ekanligini va kimning istagi ekanligini bilaman, uning istagidan yuz o‘girmayman” [9: 275 – 276].

Bundan ko‘rinadiki, Navoiy o‘z asarida voqeaning anchagina keskinroq xarakterdagi boshini va oxirini tushirib qoldirgan. Buni ham Navoiyning boshqa tasavvuf adabiyoti vakillaridan farqli o‘rtacha yo‘l tutishni afzal bilganligi bilan izohlash mumkin. U, bizningcha, Haqning ishlaridagi ilohiy hikmatlarga qarshi bormaslikni, ularni muhokama qilmaslikni ham nazarda tutgan. Halloj e‘tiroz bildirgan holatda ham Haq taoloning ilohiy irodasi, hikmati yashirindir. Balki shu sabadandir Navoiy talqinidagi hikoyatda Halloj “fuzul” (ezma, ko‘p gapiruvchi), “ko‘tahnazar” (kaltafahm, uzoqni ko‘ra olmaydigan) deya malomat qilinadi. Chunki bir g‘azalida “g‘ayb makmani” – noma‘lum taqdirdan neki oshkor bo‘lsa, uni Allohdan bilib, e‘tiroz bildirmaslikka chaqiradi:

Sen e‘tirozni qo‘yg‘ilki, barcha Haqdindur,

Chu g‘ayb makmanidin har nekim bo‘lur sonih [19: 106].

E‘tiborli tomoni shundaki, Navoiy Hallojni ilohiy hikmatga e‘tiroz birdirganini tanqid qilgan bo‘lsa-da, Abdulkarim Qushayriy “Risolai Qushayriya”sida Haqning ishlariga qarshi bormaslik haqidagi quyidagi tasavvufiy hikmatni aynan Mansur Halloj tilidan bayon qiladi: “Tavhidda haqiqatni bilgan kimsadan qanday va nima uchun savollari soqit bo‘ladi” [1: 64]. U holda, Navoiy nega asarida Hallojni o‘zi aytgan so‘zlarga teskari yo‘l tutuvchi qilib tasvirlagan? Biz buni shunday izohlaymiz: “Lison ut-tayr”dagi Mansur Halloj obrazi tarixiy Halloj obrazi asosida ishlangan bo‘lsa-da, uning badiiy obraz ekanligini unutmashimiz kerak. Bunday obraz tarixiy shaxs bo‘lsa-da, badiiy asarda aynan tarixda qanday bo‘lganidek tasvirlanmasligi ham mumkin. Chunki, badiiy obraz asar muallifining g‘ayaviy qarashlarini yuzaga chiqaradigan bir vositadir. Shuning uchun asar muallifi biror tarixiy shaxs obrazini yaratar ekan, bu shaxs obrazga aylanishi uchun unga o‘zidan ko‘plab qo‘shimcha tafsilotlarni qo‘shishi lozim. Bu badiiy ijodning o‘ziga xos qonuniyatlaridan biridir. Navoiy o‘zining boshqa asarlarida tarixan islom va tasavvufga aloqasi bo‘lmagan

Suqrot, Aflotun, Aristotel, Iskandar, No‘shiravon singari shaxslarning musulmon kishi sifatida tasvirlanishiga sabab ham shu.

Garchi Jaloliddin Rumi Hallojning holatini himoya qilib, e‘tirozga o‘rin qoldirmaydigan tarzda “Men Haqman” (Anal – Haq) deyishni odamlar buyuklikni da’vo qilish hisoblaydilar. “Men Haqning quliman” degan kishi ikki borliqni – o‘z va Tangri borlig‘ini istibotlagan bo‘ladi. Holbuki, “Men Haqman” degan o‘z borlig‘ini yo‘q qilgani uchun “Anal Haq” demoqda. Ya’ni Men yo‘qman, barchasi Udir. Tangridan boshqa borliq yo‘qdir. Men mutlaqo yo‘qlikman, hechman. Bu so‘zda kamtarlik ko‘proq emasmi?” [24: 45] degan bo‘lsa-da, ammo Navoiy bu holatni to‘la oqlay olmaydi. Bu talqini orqali Alisher Navoiy komillikda hech bir valiy janobi Payg‘ambar sollallohu alayhi vassallamga tenglasha olmaydi, degan g‘oyani nazarda tutadi. Bizningcha, shoir mazkur hikoyat orqali islom aqiydasidagi muhim bir maslaga ham e‘tiborni tartadi, ya’ni: “...avliyolardan birortasi, kim bo‘lishidan qat’i nazar, anbiyo alayhissalomlarning birortasidan afzal bo‘la olmaydi... Agar hamma avliyolar bitta nabiy bilan solishtirilsa, nabiy ulardan ustun chiqadi va martabasi yuqori bo‘ladi...” [25: 328]. Valiylar har qanday oliy holda bo‘lsalar ham, payg‘ambar alayhissalomda bular eng oliy darajada mujassamdir degan fikr keyinchalik tasavvuf nazariyasidan ham mustahkam o‘rin egalladi. “Faslul-xitob” asarida anglatilganidek, Hazrati Mustafo sollallohu alayhi vassallam Haq huzurida hech bir nabiy va valiyda bo‘lmagan fanoga istig‘roq holida bo‘lganlar [14: 32].

Alisher Navoiy o‘z asarida Hallojga nisbatan biroz tanqidiy munosabatda bo‘lishining yana bir sababini undan keyingi davrda yashagan tasavvuf olimi, vahdat ul-vujudga nisbatan vahdat ush-shuhud falsafasini oldinga surgan Imom Rabboniyning quyidagi qarashlari bilan asoslash mumkin: “Bu kabi so‘zlar (anal-haq, subhona a‘zamushshani singari shathiyotlar – A. R.) hayrat maqomi sanalgan aynul-yaqin maqomida zuhur etadi. Bu martabadan yuksalab haqqul-yaqin darajasiga erishilgan vaqtda bu kabi so‘zlardan saqlanadilar. Mo‘tadillik chegarasidan oshmaydilar” [8: 155]. Navoiy zamonasining yetakchi tariqati hisoblangan xojagon-naqshbandiya ham o‘zini unutib qo‘ygan majzub o‘z holiga tashlab qo‘yilmasdan, tarbiya qilinish, to‘g‘ri yo‘lga solinishi, yana avvalgi hushyor holatiga qaytarilishi kerak, deb ta’lim beradi. Naqshbandiya ta’limotiga tegishli muhim manbalardan hisoblangan Faxruddin Ali Safiyning “Rashahot” asarida “agar Xojaning (Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyy – A.R.) farzandi ma’naviylaridin birlari hayot bo‘lsa erdi, Husayn Mansurni tarbiyat birla ul maqomdin o‘tkarur erdi” [27: 59], deyiladi. Balki shuning uchundir, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da ishqqa mag‘lub bo‘lgan Shayx San’onni bu holatdan qutulib, yana avvalgi hushyorlik maqomiga qaytgan orif sifatida tasvirlagan.

## **XULOSA**

Alisher Navoiy o‘z asarlarida boshqa so‘fiy ijodkorlar singari Mansur Halloj shaxsiyati va holatini ochiqchasiga maqtamagan, targ‘ib qilmagan hatto g‘azallarida nomini ham tilga olmagan bo‘lsa-da, ammo ularda uning tasavvufdagi o‘rni, maslagiga doir o‘z qarashlarini bayon qilgan, deb ayta olamiz. Navoiyning Halloj siymosiga eng ochiq munosabati uning “Lison ut-tayr” dostonida aks etgan bo‘lib, bu hikoyat hajman kichik bo‘lsa-da, uni bir qator tasavvufiy qarashlar, hatto hatto Islom aqidasi nuqtai nazaridan ham talqin qilish mumkin.

Agar Navoiydan oldingi tasavvuf shoirlari Mansur Hallojni juda ham idealashtirib tasvirlagan bo‘lsalar, Navoiy esa u shoirlarni shunchaki takrorlab qo‘ya qolmaydi, balki ularning Halloj borasidagi qarashlarini ijodiy rivojlantirib, bu obrazga masalaning boshqa tomonidan ham qarash mumkinligini ko‘rsata oldi.

Navoiy Mansur Halloj obrazi vositasida tasavvufiy g‘oyalarning nihoyatda nozik ekanligini, ularni har qanday kishiga oshkor qilib bo‘lmasligini, Haq taoloning har bir ishida ilohiy bir hikmat yashiringani, shuning uchun unga e‘tiroz bildirilmasligi va, shuningdek, so‘fiylar qanchalik yuqori maqomlarga erishmasin, barcha payg‘ambarlar va payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamda bu maqomlar eng oliy darajada mujassam ekanligini, shuningdek, islom aqiydasida belgilab qo‘yilgan valiy hech bir holatda nabiyan ustun bo‘la olmaydi, degan g‘oyalarni talqin qiladi.

Navoiy Halloj obraziga, Xoja Abdulloh Ansoriyning va o‘zi mansub bo‘lgan xojagon-naqshbandiya tariqati qarashlari orqali munosabatda bo‘ladi. Shoir umri davomida yozgan she‘rlarida Halloj obraziga murojaat qilmay, nega aynan umrining so‘ngida yaratgan “Lison ut-tayr” dostonida u haqida hikoyat yozganiga kelsak, bu doston Navoiy tasavvufiy qarashlarining o‘zagini tashkil qiladi. Halloj esa tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotining eng muhim siymosidir, shunday ekan, Navoiy ham tasavvufiy qarashlarining xulosasi hisoblangan dostonida bu shaxs haqidagi o‘z xulosalarini, qarashlarini bayon qilmasligi mumkin emas edi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abdulkarim Qushayriy. Tarjimayi Risolai Qushayriya. Mutarjim: Abu Ali Hasan bin Ahmad Usmoniy. – Tehron: Hurmus, 1390.
2. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. – Kalkutta: Matbaayi Laysiy, 1858.
3. Abu Abdurahmon as-Sulamiy. Tabaqot us-sufiya. – Bayrut: Dor ul-kitabul-ilmiiyya, 2003.
4. Afifi Ebu‘l-Ala. Tasavvuf: Islom‘da Manevi Hayat. – Istanbul: İz Yayıncılık, 2021.

5. Mevlevi Tahirü'l. Kudret Denizinde Bir Su Kuşu. – İstanbul: Büyüyenay Yayınları, 2018.
6. Sayyid Ali Usmon Hujviriy. Kashful-mahjub. – Lahor: Dor un-nur, 1435.
7. Schimmel A. Mystical dimensions of Islam. – Chapel Hill: The University of North Carolina Press, 1975.
8. Serhendi İmam-ı Rabbani Ahmed Faruki. Mektubat-ı Rabbani. Cilt 1. Çeviren: Abdulkadir Akçiçek. – İstanbul: Akit Yayıncılık, 1998.
9. Shamsiddin Ahmad Aflokiy. Manoqib ul-orifin. – Tehron: Dunyoyi kitob, 1362.
10. Shayx Fariduddin Attor. Mantiq ut-tayr. – Tehron: Mash'ali ozodiy, 1353.
11. Shayx Ruzbixon Baqliy Shiroziy. Sharhi shathiyot. – Tehron: Tahuriy, 1981.
12. Uludağ S. Hallac-ı Mansur / Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. Cild 15. – Ankara: TDV, 1997. S. 377 – 381.
13. Hoja Abdulloh Ansoriy. Tabaqot us-sufiya. – Kobul: Matbaayi davlati Kobul, 1341.
14. Hoja Muhammad Porso. Fasulul xitob ba vaslul-ahbob. – Toshkand: Matbaayi G'ulomiya, 1331.
15. Yılmaz H.K. Tasavvuf ve Tarikatlar. – İstanbul: Ensar, 2004.
16. Altıntaş H. Tasavvuf Tarihi. – Ankara: Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Yayınları, 1986.
17. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1968.
18. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 2-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011.
19. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 4-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011.
20. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 9-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011.
21. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик: 10-жилд. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011.
22. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Adabiyot, 2021.
23. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр – Ўзбекистон, 2009.
24. Мавлоно Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. Таржимон: У.Абдуваҳоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1997.
25. Муҳаммад Анвар Бадахшоний. “Ақидатут-Таҳовия” шарҳининг талхийси. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф таржимаси. – Тошкент: Nilol-nashr, 2014.
26. Саййид Қосимий. Ҳақиқатнома / Муборак мактублар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987.

27. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт. – Тошкент: Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004.
28. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент, Шарқ. 2011.
29. Шодмонов Н. Навоий дунёқарашининг тасаввуфий-фалсафий асослари / Тасаввуф адабиётининг ўрганилиши ва таржимашунослик муаммолари. Конференция мақолалари тўплами. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2018. Б. 117 – 124.
30. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007.
31. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати. Н.Комилов таржимаси. – Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 1994.